QATAG‘ON DAVRI QURBONI − BIR YURTDOSHIMIZ TAQDIRI

Donoxon Shayxitdinova

Namangan viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi

“Xotira va qadrlash” bo‘limi mudiri

+(998)-93-425-43-60

Annotatsiya*: Mazkur maqolada O‘zbekiston tarixining murakkab va fojeali davrlaridan biri – 1920-1950-yillardagi qatag‘on qurbonlari masalasi yoritilgan. Xususan, qatag‘on yillarida nohaq ayblanib, qatl etilgan Nuriddin Qorievning hayoti va faoliyati haqida batafsil ma’lumot beriladi. U mustamlakachilik va adolatsizlikka qarshi kurashib, milliy ozodlik harakatida faol ishtirok etgan, davlat boshqaruvida muhim lavozimlarni egallagan shaxs sifatida tasvirlanadi. Maqolada uning istiqlol yo‘lidagi fidokorona xizmatlari, qatag‘on yillarida tortgan azoblari va keyinchalik tarixiy adolat qaror topib, oqlanganligi haqida so‘z yuritiladi. Ushbu maqola yosh avlod uchun tarixiy saboq bo‘lishi bilan birga, milliy qahramonlarimiz xotirasini yod etishga undaydi.*

Kalit so‘zlar: *Qatag‘on qurbonlari, Nuriddin Qoriev, Namangan, O‘zbekiston tarixi, Milliy ozodlik harakati, Mehnat qahramoni, Xalq dushmani, Tarixiy haqiqat, Vatanparvarlik.*

Аннотация*: В данной статье освещается один из самых сложных и трагических периодов в истории Узбекистана – вопрос жертв репрессий 1920-1950-х годов. В частности, подробно рассматривается жизнь и деятельность Нуриддина Корияева, который был несправедливо обвинен и казнен в годы репрессий. Он представлен как личность, боровшаяся против колониализма и несправедливости, активно участвовавшая в национально-освободительном движении и занимавшая важные государственные должности. В статье рассказывается о его самоотверженной службе на пути к независимости, о страданиях, перенесенных в годы репрессий, а также о восстановлении исторической справедливости и его реабилитации. Данная статья служит историческим уроком для молодого поколения и призывает чтить память национальных героев.*

Ключевые слова*: Жертвы репрессий, Нуриддин Корияев, Наманган, история Узбекистана, национально-освободительное движение, Герой труда, Враг народа, историческая правда, патриотизм.*

Annotation*: This article highlights one of the most complex and tragic periods in Uzbekistan's history—the issue of repression victims from the 1920s to the 1950s. In particular, it provides detailed information about the life and activities of Nuriddin Qoriev, who was unjustly accused and executed during the years of repression. He is portrayed as a figure who fought against colonialism and injustice, actively*

participated in the national liberation movement, and held important positions in state administration. The article discusses his selfless service for independence, the suffering he endured during the repression years, and how historical justice was later restored with his exoneration. This article serves as a historical lesson for the younger generation and encourages the commemoration of national heroes.
***Keywords**: Repression victims, Nuriddin Qoriev, Namangan, Uzbekistan history, National liberation movement, Hero of Labor, Enemy of the People, Historical truth, Patriotism.*

Bugungi kunda yoshlarimizning o‘zi tug‘ilib o‘sgan, voyaga yetgan qishlog‘i, yurti tarixini bilishga qiziqishi ortib bormoqda. Har qanday xalq, millat o‘zi bosib o‘tgan yo‘lning yutug‘i, yo‘qotishlari, qurbonlari, quvonch va tashvishlarini xolis va haqqoniy bilsagina , uning ongu shuurida tarixiy haqiqatga munosabat shakllanadi va insoniylik sifatlari ortadi, ma’naviy olami kengayadi, bugungi kun qadri va ahamiyatini teran his qila boshlaydi.

O‘zbekiston sobiq ittifoq davridagi tarixning mislsiz alamli va qayg‘uli sahifalaridan biri 1920-50 yillardagi qatag‘on qurbonlari va ularning qamoqxona va lagerlardagi ayanchli hayoti masalasidir. 1937-1953 yillarda birgina O‘zbekiston bo‘yicha qarib 100 ming nafar inson qatag‘onga uchrab, 13ming nafari otib tashlangan.

Namangan viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyida ham qatag‘on qurbonlari xotirasiga bag‘ishlab ekspozitsiya tashkil etilgan bo‘lib, undagi Nuriddin Qorievga tegishli ma’lumotlar diqqatga sazovordir.

Nuriddin Qoriev 1893-yilda Namangan shahrida tug‘ilgan. Uning yoshligi qiyinchilik va og‘ir mehnat qilish bilan o‘tdi. Boshlang‘ich ta’limni 3 yil o‘qidi, zamon zayli bilan oilaga ko‘maklashish maqsadida Namangan shahridagi yog‘ zavodida yuk tashuvchi, bozorda aravakash va mardikorlik ishlariga yo’llangan.

1917 yildagi shuro inqilobidan so‘ng partiyaga a’zo bo‘lib kirdi. 1917-1920-yillarda mamlakatda hukm surgan istiqlol harakatida faol ishtirok etadi. 1918-yil dekabrida Namangan uyezdiga qarashli Namangan tumanida tashviqot va targ‘ibot ishlarini olib bordi. Namangan va Farg‘ona viloyatlarida unga yuklatilgan vazifalarni mas’uliyat bilan bajardi.

1924-yilda mamlakatda o‘tkazilayotgan yer-suv islohoti vaqtida unga shu islohot bo‘yicha tuzilgan Samarqand viloyati komissiyasiga rais etib tayinlanadi. Nuriddin Qoriev 1920-1930-yildlarda uyezd, shahar, ijroqumi bo‘limi mudiri, mas’ul kotib, Sardoba dahasi oqsoqoli, militsiya boshlig‘i, revkom raisi, O‘zbekiston Markaziy ijroqo‘mi mas’ul kotibi kabi mas’uliyatli lavozimlarda faoliyat olib borgan.

Namangan shahrida bo‘lib o‘tgan partiyasizlar konferensiyasida so‘zlagan nutqida kuyinib shunday degan edi: “Musulmon mehnatkashlari eng oddiy huquqlardan ham mahrum bo‘lganlar. Turmushning qaysi sohasiga ko‘z tashlamaylik hamma joyda ikki xil ulchov bor: biri ovrupoliklar uchun, boshqasi musulmon aholi uchun. Shirkat va oziq – ovqat idoralarida yeguliklar aksariyat ovrupolik aholiga berilgan, musulmonlar ommasi esa to‘q ovrupolik aholi ko‘z o‘ngida ochlik azobini tortib o‘lib ketaveradi. Maktablar, teatrlar va boshqa madaniy muassasalarning aksariyati ovrupolik aholi uchun ochilgan va ishlab turibdi. Xush, bunday axvoldan qanday chiqish mumkin. Mahalliy musulmon millatlari vakillari har qadamda, har qadamda, har daqiqada velikorus shovinistlari tomonidan o‘zlariga nisbatan ishonchsizlikni, dushmanlikni, ayovsizsizlik va yovuzlarcha vahshiylikni ko‘rdilarki, hatto chor hukumati davrida ham tushga kirmagan holat yuzaga keldi. Ular milliy ozodlik kurashi bilangina o‘z taqdirlarini o‘zlari hal qilishlari mumkinligiga qat’iy ishona bordilar.

1924 yil Namangan uezd shahar kengashi s’ezdida N. Qorievning samarali va shavkatli mehnati munosib taqdirlanib, unga “Mehnat qahramoni” unvoni berilganligi xujjati alohida ahamiyatga ega. 1925-yil fevral oyida bo‘lib o‘tgan Turkiston ishchilari, dehqonlari va askar deputatlarining 1-Butun o‘zbek s’ezdiga N. Qoriev Farg‘ona viloyatidan hal qiluvchi ovozga ega bo‘lgan delegat etib saylangan. Bu s’ezdda may oyida Moskva shahrida bo‘lib o‘tadigan Butunittifoq 3 – s’ezdida hal qiluvchi ovozga ega delegat etib saylandi.

1930-1934-yillarda olib borgan faoliyatiga qoralanib , u “xalq dushmani” deb topildi va 1938-yil 13-noyabrda otib tashlandi.

U inqilob va milliy harakatlarda ishtirok etganlikda ayblangan. 1956 yilgi XX s’ezdda ko‘tarilgan masala, ya’ne istiqlol uchun kurashgan, millatni hurriyat va

erkinlikka chorlagan, xalqimizning tinch va osuda hayoti uchun tinmay kurashgan hamyurtlarimiz qatori Nuriddin Qoriev xujjatlari o‘rganildi. 1958 yilda 28 iyul O‘zbekiston Oliy Sudi qarori bilan Nuritdin Qorievning nomi oqlandi.

Nuriddin Qorievning hayoti va faoliyati O‘zbekiston tarixining murakkab va fojeali sahifalaridan birini aks ettiradi. U mustamlakachilik va adolatsizlikka qarshi kurashgan, xalqining huquqlari va erkinligi yo‘lida fidoyilik ko‘rsatgan shaxs sifatida tarixda o‘z nomini qoldirdi. Uning jasorati va faoliyati qatag‘on yillarida nohaq qoralanib, qattiq jazo oldi. Biroq vaqt o‘tib, tarixiy adolat qaror topdi va u oqlandi. Bugungi yoshlar uchun Nuriddin Qoriev singari fidokor insonlarning hayoti saboq bo‘lishi, ularning mashaqqatli yo‘li mustaqillik, erkinlik va adolatning qadriga yetishimiz uchun muhim ekani anglanishi lozim. Uning jasorati haqiqiy vatanparvarlikning yorqin timsoli bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Трагедия среднеазиатского кишлака: коллективизация, раскулачивание, ссылка 1929-1955гг. Документы и материалы. III-III том. Под ред. Д.А.Алимовой. Составители: Р.Т.Шамсутдинов, Б.М.Расулов.- Т.: Шарк, 2006; Шамсутдинов Р., Юсупов Э., Хошимов С., Дўсматов Э. Среднеазиатский кишлак в годы большого террора. Документы и материалы. - Андижан, 2007.
3. Шамсутдинов Р. Холмирзаев Э,“Қулоқ”қа тортиш ва қатағон қилишнинг фожиаларига доир (Наманган вилояти мисолида) // Илмий ҳабарнома, (Андижон), 2014, №4
4. Шамсутдинов Р. Қишлоқ фожеаси: жамоалаштириш, қулоқлаштириш, сургун. (Ўрта Осиё республикалари мисолида) Т.: Шарқ, 2003.
5. Шамсутдинов Р.Т Қишлоқ фожеаси: жамоалаштириш, қулоқлаштириш, сургун. (Ўрта Осиё республикалари мисолида) Т.: Шарқ, 2003.
6. Шамсутдинов Р.Т. Тарихий меросимизга бир назар. Андижон. 1994.
7. Шамсутдинов Р. Холмирзаев Э,“Қулоқ”қа тортиш ва қатағон қилишнинг фожиаларига доир(Наманган вилояти мисолида) // Илмий ҳабарнома, (Андижон), 2014, №4.